www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Hajviyot-haqiqat quroli

Karimova Hafiza

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi

Ogahiy ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon:+99 899 576 12 87

Annatotsiya :O'zbekiston Qahramoni, xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidovning serqirra va betakror ijodi she'riyat muhlislari qalbini nazmning ajib gulshaniga oshufta qilib kelmoqda.Ayniqsa, ijodkor she'rlaridagi zukkolikka hamda sof samimiy yumorga yo'g 'rilgan hajviyot har qanday kitobxonni o 'ziga maftun etishi tabiiy.Shoirning she'rlarida insonga zavq-shavq beradigan,qalbga huzur bag'ishlaydigan,ko'ngilga yorug'lik olib kiradigan yumorning go'zal namunalarini uchratamiz.Bunday she'rlar quvnoq shoir siymosini kitobxon ko'ngliga yanada yaqinlashtiradi.

Kalit so'zlar: hajviyot,yumor,satira "Donishqishloq latifalari",sof va samimiy kulgi,fosh etish,zakiy lutf.

O'zbek adabiyotining ko'plab yirik vakillari ijodida hajviyotning go'zal namunalarini uchratamiz.Jumladan, Muqumiy,Maxmur,Zavqiy,Gulxaniy,Abdulla Qodiriy,Abdulla Qahhor,Said Ahmad kabi ijodkorlar hayotiy haqiqatni bayon etishda yumor qurolidan o'rinli va samarali foydalanishgan.

Elimiz ardog'idagi shoir Erkin Vohidov ijodida ham hajviyot muhim o'rin tutadi.Uning ko'pgina she'rlari zamirida tagdor yumor bor.Aslida Farg'onalik kishilar hazil-mutoyibaga usta xalq.Askiya janrining ham yuksak cho'qqiga ko'tarilishi shu go'zal vodiyga to'g'ri keladi.Tomiri xushchaqchaq askiyalar,betaktor ,serzavq qochirimlar vodiysi Farg'onaga tutash Erkin Vohidov hayotda hazilkash, quvnoq inson ekanligini do 'stlari,yaqinlari hamsoyalari bot-bot ta'kidlashadi.Bir kuni muxbir shoirga savol beradi:

-Kelinoyi bilan salkam ellik yil yashagan ekansizlar,qanday qilib tanishgansizlar?

-Men taqdirimni uzoq-uzoqlardan qidirib yuribman.Buni qarangki,o'zimizning mahallada, o'zimizning ko'chamizda, qo'shni ekan! Shuni aytadilar-da "falokat oyoq ostida "deb.

Tabiiyki, shoirning mutoyibaga moyil ruhiyati she'rlariga ham ko'chgan.Fikrimizning dalili sifatida sevimli shoirimizning juda ko'plab she'rlarini keltirishimiz mumkin. Jumladan,"Amaldorning o'limi "she'rida:

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Dod, ming dod,

Men yo‘qotdim aziz kishimni.

O‘lmay o‘lgur

Bitirmasdan ketdi ishimni.

deya oddiy xalq vakili bo‘lgan lirik qahramon amaldorning o‘limidan emas,ishi bitmay qolganidan tashvishga tushishi hajviy yo‘sinda ifodalangan.

Ijodkorning “Jumadan qolgan odam “she’rida juda sof kulguning guvohi bo‘lamiz.She’rda xastalanib qolgan bir cholni farzand-u qarindoshlari “Endi o‘ladi, payg‘ambar yoshiga yetdi”,deb janozaning hamma tadorigini ko‘ra boshlashadi.Qorini chaqirtirib janozasiga shay turishadi,kafanlikni ham tayyor qilib ,hatto tobutini ham yasab qo‘yishadi, cholning do‘sti -go‘rkovga xabar qilib go‘rni ham shay qilib turishadi. O‘zlaricha cholning o‘lim kunini ham belgilashadi:

U doim oz og‘rig‘-u,

Oson o‘lim tilardi.

Bobomdek oltmish uchda,

O‘lishini bilardi.

Ayniqsa, juma kunni ,

Ko‘p iltijo qilardi.

Nogohon nabirasi xabar qilgan “Tez yordam “mashinasi yetib keladi va dori-darmon qilishadi.Neajabki, chol ko‘zini ochadi.

Yana ko‘p juma o‘tdi,

Oy-yillar o‘tdi qator.

Sakson sakkizga bordi,

O‘ldiga chiqqan bemor.

She’rda shoir inson qanday vaziyatda bo‘lmasin, Alloh taqdiriga bitganini ko‘radi, hech kim oldindan nima bo‘lishini bilmaydi, barchasi Yaratganning hukmiga havola, degan fikrni yumoristik sayqallab kitobxonga yetkazadi.

Erkin Vohidovning kichik hajmli, ayniqsa, to‘rtliklar shaklida yozilgan she’rlari hajviyona lutfga boyligi bilan birga teran mushohadaga chorlovchi fikrlar bilan sug‘orilgan.”Sirning qanoti “she’rini o‘qigan kitobxon “Sir ichingda bo‘lsa o‘zingniki,og‘zingdan chiqdimi,elniki”, degan haqiqatning isbotini anglaydi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Sirni yoymoq bo‘lsang bir og‘iz so‘z bas,

Radioda e’lon qilish shart emas.

Ochmoq ham kerakmas internetda sayt,

Hech kimga aytma deb bir kishiga ayt.

Shoirning ajoyib hazillari , mo‘ljalga bexato uruvchi bebaho, zakiy lutflari kitobxonda zavq va shavq tuyg‘usini uyg‘otadi, ko‘ngilga yorug‘lik olib kiradi.

Meva berma bolangga,

Asra amma-xolangga.

Mahkam bekit, yashavor

Qoraytirib tashavor.

Erkin Vohidovning sof kulgi,ya’ni yumoristik ruhdagi she’rlari qatoriga “Donishqishloq latifalari” turkumidan joy olgan she’rlarini kiritishimiz mumkin.Bu turkum she’rlarida ijodkor sodda , beg‘ubor, ba’zan go‘l va laqma Matmusa obrazi orqali xalqimiz orasidagi shu toifa kishilarni samimiy kulgi ostiga oladi.Turkumdagi “Matmusaning qishlog‘i”,”Matmusaning qalpog‘i”,”Matmusaning lagani”,”Matmusaning charxpalagi”,”Matmusaning tandiri”,”Matmusaning uylanishi”,”Matmusanig dutori” kabi qator she’rlarida yumaristik kulguning go‘zal namunasiga duch kelamiz.She’rxon Matmusa obrazini har qadamda tevarak atrofdan topishi mumkin.Matmusa sodda va beg‘ubor qalb egasi bo‘lgan oddiy vatandoshlarimizning umumlashma obrazidir.

Ma’lumki , hajviy asarlar 2 turga bo‘linadi: yumoristik-sof kulgiga asoslangan hamda satirik-zaharxanda kulgi asos qilingan asarlar.Satiralar jamiyatdagi,insonlar hayotidagi illatlarni fosh etishni maqsad qilsa, yumor orqali ijodkor bu toifali kishilarni “tuzatish”ni maqsad qilib qo‘yadi.Shoir Matmusaning sodda va laqmaligi ustidan kular ekan ,bunday insonlarning tuzalishini ,ya’ni har bir ishni aql va tadbir bilan, zakovat va idrok bilan bajarish lozimligini uqtiradi. Ijodkorning o‘zi “Mushtum” jurnalida Matmusa obrazi haqida shunday deydi:”Matmusa tashqaridan qaraganda kulgi vositasi bo‘lsa ham aslida matmusalar jamiyatimizning fojeasi edi.Hayot bor ekan,fikrimizda noqisliklar mavjud ekan,bu xil “tomi qiyshaygan “zotlar bo‘ladi”.

Shoirning hajviy she’rlari orasida satirik ruhda yozilgan she’rlarni ham uchratamiz.Jumladan ,”Bizlar arra tortmoqdamiz” she’rining tag zamiridagi ma’noni bir o‘ylab ko‘ring-a!

Bizlar arra tortmoqdamiz,

Arramizning tishi yo‘q.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 1, 2023

Nega arrang tishi yo‘q, deb,
So‘raydigan kishi yo‘q.
Chunki bizlar anoyimas,
Pishib ketgan ko‘zimiz,
Arra tushgan o‘sha shoxda
O‘tiribmiz o‘zimiz.

Shoirning jamiyatdagi bunday illatlarni zaxarhanda kulgi ostiga oluvchi she’rlari juda ko’p.Bunday hajviyalar barcha zamonlarda haqiqat quroli bo‘lib xizmat qilaveradi.Sevimli ijodkorimizning beg‘ubor hazil-hangomalari jamiyatdagi achchiq til bilan aytib bo‘lmaydigan ayrim haqihatlarni labda nim tabassum bilan aks ettirgani bois umriboqiy bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shodmon Otabek.”Erkin Vohidov bir kuni”.Toshkent- 2019

2.Erkin Vohidov.”Senga baxtdan taxt tilayman”.G‘.G‘ulom nashryoti.Toshkent-2017

3.Erkin Vohidov.”Dil tubiga cho‘kkan lahzalar”.”Sharq” nashryoti-2013

4.Erkin Vohidov.”Kuy avjida uzulmasin tor”.G‘,G‘ulom nashryoti-1991